Yarimo’tkazgichlar fizikasi sohasidagi taniqli olim Abdurasul Gulyamov olamdan o’tdi

Yarimo’tkazgichlar fizikasi sohasining taniqli yosh olimlaridan biri, fizika-matematika fanlari doktori, O’zR FA fizika-texnika instituti bosh ilmiy xodimi Gulyamov Abdurasul Gafurovich bor yo’g’i 46 yil umr ko’rgan bo’lsada, o’ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi yarimo’tkazgichli strukturalar dinamikasi va kinetik hodisalarining nazariyasini takomillashtirish bo’yicha bir qator ilmiy ishlar muallifligiga ulgura olgan. Abdurasul Gulyamov nafaqat olim, balki kamtarin, sodda, beozor, xushfe’l, qalbi pok va o’zidan faqat yaxshilik qoldirgan inson sifatida ham tanilgan edi.

Gulyamov Abdurasul Gafurovich 1974-yil 9-fevralda Namangan viloyati Mingbuloq tumanida ziyoli oilasida tug’ilgan. Otasi Gulyamov Gafur – respublikadagi taniqli olimlardan biri, Namangandagi katta ilmiy maktab asoschisi, fizika-matematika fanlari doktori, Namangan muhandislik-qurilish instituti fizika kafedrasi professori lavozimida ishlab kelmoqda. Abdurasul Gulyamovdagi tug’ma iste’dodning ko’z ochishida, uning yosh olim, fan doktori bo’lib yetishuvida otasining turtkisi sabab bo’lgan.

Abdurasul Gulyamov 1991-1996-yillar Namangan sanoat – texnologiya institutini muvaffaqiyatli yakunlab, 2 yil harbiy xizmatda bo’lgan. 1997-2011-yillar oralig’ida Namangan Davlat universiteti “Texnik xizmat ko’rsatish” bo’limi boshlig’i, Namangan muhandislik-pedagogika instituti "Fizika" kafedrasi katta o’qituvchisi lavozimlarida ishlab kelgan. 2010-yil nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, fizika-matematika

fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo’ldi. So’ngra, 2011-2014-yillarda Namangan muhandislik-pedagogika institutida dekan muovini, kafedra mudiri lavozimlarida ishlab, qisqa muddat ichida o’zining mehnatkashlik, jonkuyarlik va halollik jihatlari bilan butun jamoaga tanilishga ulgurgan.

Gulyamov Abdurasul Gafurovich 2014-yil O’zR FA fizika-texnika institutiga doktoranturaga o’qishga kirdi va ushbu ilmiy dargohda katta ilmiy – xodim izlanuvchi lavozimida ishlay boshladi. 2017-yil 19-oktyabr kuni “Yarimo’tkazgichli strukturalarning dinamik xarakteristikalariga deformatsiya va kuchli elektromagnit maydonning ta’siri” nomli doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo’ldi.

Abdurasul Gulyamov 2017-2019-yillar oralig’ida O’zR FA fizika-texnika institutida ilmiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari lavozimida ham ishladi. Abdurasul Gulyamov ilm qilishni davom ettirishga, shogirdlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida ko’mak berishga ham vaqt topa oldi. Natijada, 1 nafar falsafa doktori (PhD) ga ilmiy rahbar bo’lib, endigina yangi ilmiy maktabni ochishga qadam qo’ygan edi.

Abdurasul Gulyamov 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, fundamental va amaliy davlat grantlari rahbari va ishtirokchisi bo’lgan. 4 nafar farzandning otasi edi.

Iste’dodli olim Abdurasul Gafurovich Gulyamovning bevaqt vafoti munosabati bilan uning oila a’zolari va yaqinlariga O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan chuqur hamdardlik bildiramiz.